

QAYTA QAD KOTARGAN MEYORIY OBIDALAR

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi

ilmiy xodimi: **M. Mamadaliyeva**

Mulla bozor oxund yodgorlik majmui Namangan shaxrining Labiytog'a daxasi , kurshxona msvzeyidagi anamangansnoy soxilida joylashgan . Majmua buyuk shoir Raximbobo mashrabning ustoz , XVII asirning yirik mutasaviflaridan biri shayx , va ibin Sulton Muxammad Bobur qoraxon mulla Bozor Oxund bilan bog'liqdir . XX asrning 30yillarida bu yerdagi madirasa va oddiygina maqbara buzib tashlangan.

Bu tarixiy memorchilik majmui 1994- yilda qayta tiklandi. Mulla Bozor oxund yodgorlik majmui uch qismdan iborat bolib , jomemasjid, maqbara va asosiy darvozadan iborat. Maqbara ichidagi mulla bozor Oxund qabriga "Xoja Ubaydullox ibn Cul-ton Muxammad Bobur Qoraxon, Mulla bozor Oxund.1079 yilda vafot etgan (Millodiy 1668yil)" deb yozilgan . Maqbaraning Shimoliy sharqiy tomonida 2ta qabir bor . biri Mulla bozor Oxundning ustoz , domka niyoz Oxund ibn Jamolidin Zominiyniki bo'lib, ikkinchi qabir matfuni nomalum. Jome masjidi 3ming namozxonga mo'ljalangan. Asosiy darvozadan kiraverishda pishiq gishdan bezaklik qilib 16 metirli minora qurilgan. Qadimda Mulla bozor Oxund yodgorligi xovlisining o'rtasida usti yopiq xovuz-gumbazli sardoba bolib, u xam XX asrning 30-yillarida buzib tashlangan edi.

Keyinchalik uning o'rnida diametric 10 metrli 8 qiroli xovuz barpo qilindi.2007yilNamangan viloyat va shaxar xokimliklari tashabusi bilan mulla Bozor Oxund yodgorlik majmuida tamirlash – obodonlashtirish ishlari hasher yoli bilan bajarildi. Shayxontohur ansamblining hududi Abdulla Qodiriy va Alisher Navoiy ko'chalarining oralig'ida joylashgan. Ansambl uchta maqbaradan tashkil topgan: Shayx Xovandi Tohur maqbarasi, Qaldirg'ochbiy maqbarasi va Yunusxon maqbarasi.Shayxontohur XIII asr oxirida

Bog'uston tog' qishlog'ida (hozir bu yerda Chorvoq suv ombori joylashgan) xo'jalar oilasida tug'ilgan. Uning otasi shayx Umar Ikkinchi xalif Umarning avlodi bo'lgan. Xalq

shayx Umar mo'jizalar yaratishiga va tabiat hodisalarini boshqara olishiga ishongan. Ushbu oliy ne'mat uning o'g'liga o'tgan deyishgan. Yosh Shayxontohur so'fiylik ta'limotini o'rgangan. Biograflarning so'zlariga ko'ra, toshkentlik so'fiyni ayniqsa bir haqiqat hayratga solgan: **"Fanlardagi oliy ma'naviy sifatlar va bilimlarjohillarning qo'polligiga nisbatan dono odamning sabr-toqati va beozorligiga to'g'ri mutanosib"**. Shayx Toshkentda yashab va'zxonlik qilgan va 1355-1360 yillar oralig'ida vafot etgan. Rivoyatlarga ko'ra uning qabri ustidagi maqbara Amir Temurning tashabbusi bilan barpo etilgan. Bu ikki xonali uncha baland bo'lmagan qurilma bo'lib, tepasi turli balandlikdagi ikkita gumbaz bilan yopilgan. Bino hozirgi ko'rinishiga ko'p sonli tiklash ishlari va XIX asr boshidagi qayta qurishlar natijasiga ega bo'lgan. Uning ichida katta gumbaz ostida uchta dahma, kichik gumbaz ostida esa ikkita dahma bor. Maqbarada 48 ta sarv daraxtidan (Aleksandr Makedonskiy tomonidan ekilgan) bittasi – Iskandarning sarvi saqlanib qolgan. Toshga aylangan ushbu ignabarglidaraxt maqbaraning ichida bevosita Shayxning ulug'vor dahmasi yonida joylashgan.

Aytish joizki, ko'plab buyuk toshkentliklar, shu jumladan Temuriylar davrining mashhur va'zxon Uбайdulla Xo'ja Ahror (1404-1490 yy.) va XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkentning mustaqil hokimi bo'lgan Yunusxo'ja ham Shayxontohurlar avlodiga mansub. Shayxontohur maqbarasining yonida bizning kunlarga yana bir maqbara saqlanib qolgan. Bu Qaldirg'oyabiy mozori. Ushbu XV asr me'morchilik san'ati yodgorligi o'zining piramida shaklidagi gumbazi bilan majmuadagi boshqa qurilmalardan ajralib turadi va qozoq dashtlarining mozorlarini eslatadi. haqiqatdan ham, ushbu maqbara gumbazlari ostida mashhur davlat arbobi To'labiyning (qozoq) xoki ko'milgan. To'labiy toshkentliklar bilan birga O'rta Osiyo yerlaridan jangar-qalmiq bosqinchisini quvishga muvaffaq bo'lgan. To'labiy keyinchalik Toshkent davlatining mustaqil hokimiga aylangan shayxontohur hokimi Yunusxo'jani o'zining Toshkentdagi ishonchli vakili etib tayinlagan. XV asrga mansub majmuadagi yana bir saqlanib qolgan maqbara – bu buyuk Boburning bobosi Yunusxon maqbarasidir. Ushbu bino ko'p marta restravratsiya qilingan. Bu xonaqoning noyob turi hisoblanadi, u T-simon shaklda bo'lib, fasad yuqorisi bo'ylab baland ravoqqa ega. Ushbu arxitektura majmuasi barcha hunarmandlarning oliyjanob

ustozi Suzuk-otaga bag'ishlangan. Tug'ilganida Mustafoqul ismi berilgan Suzuk-ota-yilda Turkistonda Qorachuk qishlog'ida dunyoga kelgan. U Ahmad Yassaviyning yagona qizining kichik o'g'li bo'lgan. Bobosi kichkina nevarasini tizzalarida o'ynatar ekan: "Mening azizim, suzugim, xush kelibsiz!" – der ekan. Shu bois atrofdagilar uni Suzuk bola deb chaqirishgan. Bu inson butun shaharda va hatto undan tashqarida ham o'zining iste'dodi, xalqni birlashtira olishi, himmatli ishlari bilan shuhrat qozonadi va bu bilan mahalliy aholi orasida katta hurmat qozonadi. U voyaga yetganidan keyin kimsasiz, tepalik va tashlandiq joyda yashay boshlaydi va uni obodonlashtirishga tushadi. Suzuk ota o'zining kichik vatanidan Qur'on va'zxonlarini, hunarmand ustalarni, yaqinlari va do'stlarini taklif qiladi, uylar quradi, hammaga boshpana beradi, keng xalq orasida fan va hunarlarni joriy etadi. Shuningdek u yoshlarni dehqonchilikka, hunarlarga va boshqa kasblarga o'rgatadi. Suzuk ota yuzlab ustalar va hunarmandlarning ustози hisoblangan. Hamma hurmat qiladigan ustoz 1217-yilda vafot etadi. Uning mahallasi esa "ustalar mahallasi" nomi bilan mashhur bo'ladi.

Amir Temur hukmronligi davrida 1392-yilda barpo etilgan majmua masjid va maqbaradan iborat. 2019-yili ushbu inshoot rekonstruksiya qilindi. Maqbara va masjid qayta tiklandi, maydoni qariib 8 ga bo'lgan hudud obodonlashtirildi. Majmua binolaridan birida muzey, kutubxona va fuqarolar yig'ini joylashgan. Majmuaning ikki tomoni bo'ylab hunarmandlar uchun 30 ta ikki qavatli kottej barpo etilgan. Kottejlarning birinchi qavatida ustaxonalar va do'konlar ochiladi. Muyi Muborak madrasasi Hazrat-Imom tarixiy-diniy majmuasining qadimiy inshootlaridan biri hisoblanadi. Madrasa binosi XVI asrga mansub. Keyinchalik u bir necha marta qayta qurilgan. Bir paytlar bu yerda darvishlarning g'aribxonasi joylashgan. 1857-yilda esa birinchi kutubxona tashkil qilingan bo'lib, keyinchalik u islom olamining boy kitoblar to'plamidan biriga aylangan. 2008-yilda madrasa binosi yonida yangi kutubxona binosi qurildi va kitob fondining bir qismi maxsus ajratilgan xonaga o'tdi. Bu 20 mingta kitob. Ularning orasida 3 mingga yaqin qo'lyozma, 10 mingta litografiya, noyob xattotlik namunalari va Qur'onning 30 dan ortiq tilga tarjimalari bor. Mashhur xalifa Usmon Qur'oni asosiy boylik hisoblanadi, u dunyodagi eng qadimiy va dunyo ahamiyatiga ega yodgorlik hisoblanadi. Qadimgi qo'lyozma 644-648

yillarga mansub. Qur'onning og'irligi 35 kilogrammga yaqin bo'lib, 353 ta sahifadan iborat. O'z tarixining uzoq asrlari davomida u ko'plab sinovlarga uchragan: yuzlab yillar davomida Madina, Damashq va Bag'dod xalifalarining xazinasida saqlangan, mintaqaning u yoki bu nuqtasida yana paydo bo'lish uchun olimlar va din arboblarning nazaridan bir necha marta yo'qolgan va hatto Sankt-Peterburg va Ufada bo'lgan. 1997-yilda Usmon Qur'oni tarixiy deb e'lon qilindi. Rivoyatlarga ko'ra, madrasada musulmonlarning muqaddas yodgorligi hisoblangan payg'ambar Muhammadning boshidan olingan soch ham saqlanadi. Aynan shu bois madrasaga "Muyi Muborak" nomi berilgan, tarjimada u "payg'ambarning sochi"ni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Moziydan sado" – ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. 2022-2023-yillar sonlari.
2. "Farg'ona vodiysida muzey ishi va faoliyati" I. Yusupov, I. Karimov.
2022-yil, O'zbekiston Respublikasi .Madaniy meros agentligi.
3. "Moziy soboqlari" – Alijon Azizov. Namangan- 2021-yil.
4. "San'at" jurnali- 2013-yil.
5. "Guliston" – ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-badiiy, madaniy-ma'rifiy jurnal. 2021-2022-yil